



## TALABALARNING TARIXIY O'LKASHUNOSLIK VA TURIZM TA'LIMIDA TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

*Yuldasheva N.N.*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti*

**Tayanch soʻzlar:** tadqiqotchilik kompetensiyasi, xolislik, zamonaviy taʼlim, tarixiy meros, tarixiy matn, kompetentlik, kommunikativ kompetensiyalar, axborot, loyiha, kurs ishi, tezis, bitiruv malakaviy ish, bilim, koʻnikma, malaka.

**Ключевые слова:** исследовательская компетентность, объективность, современное образование, историческое наследие, исторический текст, компетентность, коммуникативная компетентность, информация, проект, курсовая работа, дипломная работа, дипломная квалификационная работа, знания, умение, квалификация.

**Key words:** investigative competence, objectivity, modern education, historical inheritance, historical text, competence, communicative competence, information, project, course work, diploma work, diploma qualification work, knowledge, art, qualification.

Mustaqillik bizga tariximiz, milliy qadriyatlarimiz, maʼnaviyatimiz, buyuk ajdodlarimizdan qolgan ilmiy merosni qayta tiklash, tariximizni xolisona, hech qanday siyosiy tazyiqlarsiz oʻrganish imkonini berdi. Vatanimiz mustaqilligi boy madaniy va maʼnaviy tariximizdan, ota-bobolarimiz yaratgan bebaho merosdan bahramand boʻlishimiz uchun keng yoʻl ochib berdi.

Soʻnggi yillarda respublikamiz oliy taʼlim muassasalarida taʼlim tizimini takomillashtirishga katta eʼtibor qaratilmoqda. Chunki har tomonlama yetuk, erkin fikrlaydigan, tashabbuskor, raqobatbardosh, shuningdek, mehnat bozorida mutaxassislar malakasiga qoʻyilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurita oladigan mutaxassis kadrlar – bir soʻz bilan aytganda, liderlarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev taʼkidlaganidek, «Milliy maʼnaviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati juda katta. Afsus, bu fanlar rivoji zamondan ortda qolmoqda. Xususan, biz uchun nihoyatda dolzarb boʻlgan tarix fani ham bundan mustasno emas. Tarixga oid ilmiy tadqiqot



ishlari asosan bayonchilik, publitsistik usulda olib borilmoqda. Natijada, olis va yaqin o'tmishimizdagi ko'pgina voqealar mohiyati, ularni yuzaga keltirgan omillar va tarixiy qonuniyatlar ochilmasdan qolmoqda. Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz zarur: milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur. Buning uchun, avvalo, O'zbekistonda tarix fanini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishimiz vaqti-soati keldi, deb o'ylayman. Tarix institutini bu fanni rivojlantirish bo'yicha tayanch ilmiy muassasa etib belgilash kerak» [1].

Shunday ekan, ajdodlarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini o'zida mujassam etgan ko'plab nodir qo'lyozmalarni jiddiy o'rganish davri keldi. Chunki, sho'rolar davrida tarixiy haqiqatni bilishga intilish rag'batlantirilmas edi, hukmron mafkura manfaatlariga xizmat qilmaydigan manbalar xalq ko'zidan iloji boricha yiroq saqlanardi. Ahvol shu darajaga borgan ediki, o'z tariximizni o'zimiz yozish huquqidan mahrum bo'lib qolgandik. Barcha ta'lim muassasalarida birovlar tomonidan yozilgan tarix darsliklari o'qitilar edi. Mustaqillik bizga ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan buyuk merosni xolislik tamoyiliga asoslangan holda o'rganish imkonini berdi. Tarixiy merosni o'rganmasdan turib, bugungi kunda davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning samarali natijasiga erishishning iloji yo'q.

Hindistonning buyuk farzandlaridan Indira Gandining «Tarix - eng yomon o'quvchilarga ega bo'lgan eng yaxshi o'qituvchidir» degan xitobi qanchalar haqiqatligini yaqqol ko'rib turibmiz. Zero, biz tarixni yaxshi o'rganar ekanmiz, o'tmishda yo'l qo'yilgan xatolardan kelajakda xoli bo'lamiz.

Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi bo'lajak mutaxassisni mustaqil ta'lim olishga, bilim va ko'nikmalarni uzluksiz kengaytirish hamda chuqurlashtirishga o'rgatishdan iborat. Agar talaba oliy ta'lim muassasasida tahsil olish davomida o'zining shaxsiy tajribasiga tayanib, bilimlarni tayyor holda egallamasdan unga mustaqil ravishda erishsa, u holda u o'zining bo'lajak faoliyatida ham xuddi shunday harakat qilishga intiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida ijodiy va mustaqil fikrlovchi mutaxassisni tayyorlashni esa talabalarni ilmiy-tadqiqot ishiga jalb etish orqali amalga oshirish mumkin. Tadqiqotchilik kompetensiyalarini egallagan mutaxassis esa, nafaqat tayyor, shuningdek eskirgan algoritm va dalillardan foydalanmasdan, balki mavjud axborotlarni faol va mahsuldor tahlil qilish, yangi yanada samarali algoritm, resurs va texnologiyalarni yaratish va tanlashni uddalay oladi. Lekin oliy ta'lim muassasalari tarix yo'nalishi ta'limi talabalarida ilmiy tadqiqotchilik ko'nikmasini shakllantirishning mavjud darajasi zamonaviy talablarga



to‘lalgicha javob bera olmaydi. Shuning uchun ham o‘quv-tarbiya jarayonida ilmiy-pedagogik eksperiment o‘tkazish texnologiyasini egallagan kompetentli talaba shaxsini shakllantirish va rivojlantirish masalasi pedagogika fani oldidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Shu munosabat bilan oliy ta‘lim muassasalari tarix yo‘nalishlarida tayyorlanayotgan bo‘lajak tarixchi-talabalarining tayyorgarligiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- fanlarga doir bilimlar bilan qurollantirish;
- ilmiy-tadqiqotchilik ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;
- shaxsiy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish;
- talabalarni o‘qitish va tarbiyalashga yangi yondoshuvlarini izlash, rejalashtirish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

Talaba oliy ta‘lim muassasasida ta‘lim olish jarayonida quyidagi bir qator ishlarni bajaradi:

- fanlar bo‘yicha referat, mustaqil ishlar yozadi;
- ilmiy anjumanlarga ma‘ruzalar tayyorlaydi;
- kurs loyihalari va bitiruv malakaviy ishini bajaradi.

Har bir yangi ish oldingisidan qiyinlik darajasi va hajmining oshishi bilan farq qilishi muhim hisoblanadi. Bitta ish mavjud ilmiy ishlarni tahlil qilish va tanqidiy baholashni ko‘zda tutsa, boshqasi talaba tadqiqotchilik faoliyati natijasi bo‘lib hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan barcha ko‘rinishdagi ishlar talabaga axborotni qidirish, qayta ishlash va undan foydalanishning zamonaviy metodlarini egallashga, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining ba‘zi bir metodlarini o‘zlashtirishga, o‘zining pedagogik pozitsiyasini aniqlash, saqlab qolish va himoya qilish ko‘nikmasini egallashga imkon beradi. Bu esa o‘z navbatida, ta‘limni kompetensaviy yondoshuv asosida tashkil etishni talab etadi. Kompetensaviy yondashuv «Kompetentlik» va «Kompetensiya» kategoriyalari mavjudligini ko‘zda tutadi.

Zamonaviy iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish ta‘lim tizimi oldiga qo‘yayotgan talablar bilan bog‘liqlikda o‘tkazilgan ko‘plab tadqiqotlarda kompetent yondashuv ta‘lim mazmuni va metodlarini o‘zgartirishning yangi bosqichi sifatida ko‘rib chiqilgan. Ana shu nuqtayi nazardan ko‘plab tadqiqotlarda kompetensiya produktiv va ijodiy faoliyat uchun zarur o‘zaro aloqador shaxsiy sifatlar majmui, kompetentlik esa, ma‘lum sohaga doir biron-bir muammoni hal etishga imkon beruvchi shaxsning zaruriy kompetensiyalarni egallaganligi sifatida talqin etilgan [2].

Pedagog A.V. Xutorskoyning fikricha, ta‘lim oluvchi uchun kompetensiya – bu uning ma‘lum bir sohadagi kelajak obrazi, o‘zlashtirish uchun aniq mo‘ljal (oriyentir). Kompetentlik esa, talabaning tegishli kompetensiyaga, shu jumladan



uning faoliyat predmetiga bo‘lgan shaxsiy munosabatiga ega bo‘lishidir. Bu allaqachon sodir bo‘lgan shaxs sifati, o‘quvchining shaxsiy fazilatlarini (qadriyat-semantik yo‘nalishlar, bilim, ko‘nikma, qobiliyat, qobiliyat) uning faoliyati tajribasi tufayli muayyan ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega soha hisoblanadi.

A.B. Xutorskoy, shuningdek, «ta‘lim kompetensiyasi» tushunchasini ham kiritadi va uni «ta‘limga bo‘lgan talab, o‘zaro bog‘liq semantik yo‘nalishlar, bilim, ko‘nikma, qobiliyat va o‘quvchi faoliyatining ma‘lum bir doiradagi obyektlarga nisbatan tajribasi sifatida ifodalanadi, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan haqiqatdir», deya ta‘riflaydi.

Ta‘lim mazmunini umumiy meta-predmetga (barcha fanlar uchun), fanlararo (fanlar sikli yoki ta‘lim yo‘nalishlari uchun) va fanga (har bir o‘quv predmeti uchun) bo‘linishiga muvofiq, u uch darajadagi vakolatlarni shakllantiradi:

- asosiy kompetensiyalar ta‘limning umumiy (meta-predmetli) mazmuniga taalluqlidir;
- umumiy fan kompetensiyalari – fanlar va ta‘lim yo‘nalishlarining ma‘lum doirasiga taalluqlidir;
- fan kompetensiyalari - o‘quv fanlari doirasida o‘ziga xos tavsifga va shakllanish imkoniyatiga ega bo‘lgan ikki oldingi kompetensiya darajasiga nisbatan xususiydir [3].

Pedagog A.B. Barannikov esa asosiy vakolatlar mazmunini quyidagicha shakllantiradi:

- o‘quv kompetensiyalari (o‘quv jarayonini tashkil etish va o‘z ta‘lim trayektoriyasini tanlash; ta‘lim va o‘z-o‘zini tarbiyalash muammolarini hal qilish va h.k.);
- tadqiqot malakalari (axborotni topish va qayta ishlash; turli ma‘lumotlar manbalaridan foydalanish; hujjatlar bilan ishlash va h.k.);
- kommunikativ kompetensiyalar (boshqa odamlarning fikrini tinglash va hisobga olish; o‘z nuqtayi nazarini muhokama qilish va himoya qilish; bir necha tillarda tushunish, gapirish, yozish, o‘qish; omma oldida so‘zlash; o‘z fikrini adabiy tarzda ifodalash va h.k.) [4].

Shuni ta‘kidlash kerakki, hozirgi vaqtda tadqiqotchilar tomonidan ta‘limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv qoidalari va tushunchalar mazmunini belgilash, kompetensiyalarni tasniflash hamda ularni farqlashni aniqlash, ta‘lim faoliyati natijasida ularni baholash kabi yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Tarixiy o‘lkashunoslik sohasida odatiy «BKM» (bilim, ko‘nikma, malaka) ning mazmuni talabanning tajribasi, shu jumladan tarixiy va ilmiy-tadqiqot fanlari



sohasida muhim rivojlanish imkoniyatlari yaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga tayanishi tufayli kengayib bormoqda.

Pedagog olim S.N. Skarbich izlanishlariga tayangan holda shuni ayta olamizki, tadqiqot kompetensiyalari talabada:

- o‘z-o‘zini tarbiyalashga hissa qo‘shadi;
- hayotda yanada muvaffaqiyatli bo‘lishga yordam beradi;
- keng faoliyat sohasida ijodiy ishlashga o‘rgatadi.

S.N. Skarbich bilim va ko‘nikmalar, shuningdek ma‘lum bir shaxsiy fazilatlar to‘plamining integratsiyalashuviga asoslanib, tadqiqot kompetensiyalarini motivatsion, kognitiv va shaxsiy faoliyat kabi tarkibiy qismlar shaklida taqdim etadi [5].

Shunday qilib, biz tadqiqotchilik kompetensiyalarini talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish qobiliyatini rivojlantirishga, uning mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlarini tushunishga qaratilgan asosiy ta‘lim kompetensiyalarining zaruriy tarkibiy qismi deb hisoblaymiz. Talabani o‘z tadqiqot faoliyatini amalga oshirishga qodir bo‘lgan malakali tadqiqotchi bo‘lishi uchun u aniq bilimga ega bo‘lishi, tadqiqot olib borayotgan mavzu mohiyatini anglashi, umuman olganda, tadqiqotchilik kompetensiyasiga ega bo‘lishi ushbu faoliyatda ma‘lum natijalarga erishishini kafolatlaydi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4433-son “Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 30.08.2019 y.
2. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Kasb ta‘limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 160 b.
3. Хуторской А.В. Технология проектирования ключевых и предметных компетенций [Электронный ресурс] // Интернет-журнал «Эйдос». — 2005. - 12 декабря. - URL: <http://www.eidos.ru/journal/2005/1212.htm>. (дата обращения: 04.03.2023).
4. Баранников А.В. Содержание общего образования. Компетентностный подход. - М.: ГУ ВШЭ, 2002. - 51 с.
5. Скарбич С.Н. Сущность и компоненты исследовательских компетенций учащихся // Исследовательский подход в образовании: от теории к практике: Научно-методический сборник в двух томах / Под общ. ред. А.С. Обухова. Т. 1: Теория и методика. - М., 2009. - С. 89-100.

#### РЕЗЮМЕ

Maqolada tarix yo‘nalishi talabalarining tadqiqotchilik kompetensiyasi tushunchasi ochib berilgan bo‘lib, uning komponentlarini shakllantirishni o‘rganish natijalari keltirilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В статье раскрывается понятие исследовательской компетентности студентов-историков, а также представлены результаты изучения формирования ее компонентов.

#### SUMMARY

The article reveals the concept of research competence of history students, and also presents the results of studying the formation of its components.